

## XOJA HIKOYATLARIDA INSONIY FAZILATLAR TALQINI

**Shodaliyeva Madinabonu Shukurullo qizi**

*Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti*

*o‘zbek tili yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola XVI asrning e’tiborli adabiyot namoyandalaridan biri — Ibodulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja (Xoja)ning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlaridagi hikoyatlarni ilmiy asosda o‘rganishga bag‘ishlanadi. Tadqiqot jarayonida mazkur asarlarning mazmuniy qatlamlari, ulardagi pand-nasihat, axloqiy g‘oyalar, oyat va hadislar bilan bog‘liq badiiy an‘analarning aks etishi tahlil qilinadi. Hikoyatlarning asl qo‘lyozma manbalarga tayanib o‘rganilishi ular haqidagi ilmiy xulosalarning ishonchliligini oshirishda muhim omil sifatida baholanadi. Xoja asarlarining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan nusxalari hikoyat janrining XVI asrdagi rivojini kuzatish, uning mazmuniy-badiiy yangiliklarini aniqlash imkonini beradi. Maqolada Xojaning hikoyatlarida xalqona donishmandlik, ma’rifiy ruh va mumtoz adabiyotga xos uslubiy xususiyatlarning namoyon bo‘lishi alohida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Xoja, hikoyat, qo‘lyozma, “Miftoh ul-adl”, “Gulzor”, mumtoz adabiyot, axloq, an‘ana, tahlil.

### **Kirish**

XV asr oxiri – XVI asr boshlarida yashab ijod qilgan Ibodulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja – Xoja o‘z davrining e’tiborli adiblari sirasiga kiradi va hikoyat janrini yuksak san’at darajasiga ko‘targan ijodkor sifatida tanilgan. Uning hikoyatlari mazmun mundariyasi, obrazlar tizimi hamda g‘oyaviy-badiiy pishiq--ligi bilan ajralib turadi. Xoja yaratgan nasriy kichik asarlar didaktik yo‘nalishga ega bo‘lib, axloqiy-ta’limiy va ma’rifiy ruh bilan sug‘orilgan.

### **Asosiy qism**

Mumtoz adabiyot an'anasida hikoyatlar ko'pincha asar tarkibidagi kichik nasriy bo'limlar sifatida keltiriladi. Masalan, Navoiy "Xamsa"sidagi hikoyatlar asar syujetiga bevosita aralashmagan holda fikrning tasdig'i yoki g'oyaning hayotiy asosini ko'rsatish vazifasini bajaradi. Biroq Xojaning "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlari bunday an'anadan farqlanadi: ulardagi hikoyatlar asar ichidagi epizod emas, balki Qur'on oyatlari va hadislarning sharhi asosida yaratilgan mustaqil mazmuniy birlikdir. Har bir hikoyat muayyan oyat yoki hadisda yoritilgan g'oyaning hayotiy talqinini beradi. Ilm egallash, adolatni qaror toptirish, rahbarning fazilatlarini, zulmdan tiyilish, maslahatning ahamiyati, to'g'rilik va halollik kabi mavzular Xoja hikoyatlarida markaziy o'rin tutadi.

Xoja ijodining asosiy ildizi — diniy-axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarni targ'ib etishga qaratilgani bilan ajralib turadi. Uning hikoyatlarida diniy-tasavvufiy timsollar bilan birga tarixiy shaxslar, payg'ambarlar, shohlar, vazirlar va eng muhimi — oddiy xalq vakillarining dono, irodali, adolatparvar va e'tiqodli obrazlari yaratilgan. Bu jihatlar adib asarlarining ijtimoiy-estetik qiymatini belgilaydi. Mumtoz nasrning asosiy manbaiga aylangan Qur'oni Karim oyatlari va hadislar Xoja asarlarida izchil keltiriladi va sharhlanadi. "Miftoh ul-adl" asari aynan Qur'on oyati bilan boshlanadi, so'ng asarning yozilish maqsadi, mavzulari va asosiy g'oyalari izohlanadi. Har bir mavzu bayoni oyat bilan mustahkamlanib, uning sharhi keltiriladi. Hadislar ham oyat mazmunini to'ldiradi va yakunda shu g'oyani hayotiy ifodalovchi hikoyat beriladi. Asarning syujeti aynan mana shu tartib asosida barqaror davom etadi.

Asarlarda keltirilgan obrazlar qamrovi keng: Imomi A'zam, Ali (r.a), Umar (r.a), Dovud, Muso, Iso, Luqmoni Hakim kabi payg'ambarlar va diniy zotlar, Sulton Mahmud G'aznaviy, Iskandar Zulqarnayn, Bahrom Go'r, No'shiravon adil, Xorun ar-Rashid, Shayx Bahlul kabi tarixiy shaxslar Xoja hikoyatlarining asosiy qahramonlaridir. "Gulzor"da esa Sulton Sanjar, Sulaymon payg'ambar kabi yana qo'shimcha obrazlar kiritilgan. Bu timsollar orqali adib xalq orzusidagi odil, halol, diyonatli rahbar obrazini yaratadi. Masalan, "Iskandar Zulqarnayn va Chin hoqoni" hikoyati mumtoz adabiyotda mashhur bo'lgan adolatli shoh obrazining yangi talqinini beradi. Xoja Chin hoqonini Iskandardan ham odilroq, murosali, qon to'kishdan qochgan dono hukmdor sifatida tasvirlaydi. Bu

orqali muallif kuch bilan emas, adolat va kelishuv bilan boshqarishning ustunligini ko'rsatadi.

“Miftoh ul-adl”dagi “Luqmoni Hakim” hikoyatida esa zulmning oqibati badiiy vositalar bilan ochiladi. Luqmonning “Ey xoja, nechukkim yozuq o‘rninda savob bitar, savob o‘rninda yozuq bitar...” mazmunidagi javobi xojani tavbaga undashi hikoyaning axloqiy mohiyatini belgilaydi. Bu hikoya “Nima eksang — shuni o‘rasan” degan umuminsonga xos g‘oyani tasdiqlaydi. Bahrom Go‘r haqidagi hikoyatda esa adolatsiz hokimning oqibati, uning beparvoligi sabab mamlakatning tanazzulga yuz tutishi konkret misollar orqali yoritiladi. Hikoya “Podshoh vaziriga to‘la ishonib g‘ofil bo‘lmasligi, el-yurtning ahvolidan boxabar bo‘lishi zarur” degan xulosa bilan yakunlanadi.

Xoja hikoyatlarining asosiy mohiyati — insonni ezgulikka, adolatga, iymon-e’tiqodga, ilmga, halollikka chaqirishdir. “Podshoh va zohid”, “Sulton Mahmud G‘aznaviy va Ayozi”, “Shayx Bahlul va Xorun ar-Rashid”, “Sulaymon, pashsha va yel” kabi hikoyatlarda adolat eng yuksak fazilat sifatida ulug‘lanadi. Zohidning “Bir soatlik adolatni yigirma marotaba haj savobiga almashtirishga tayyorman” demog‘i adolatning qadri naqadar balandligini ta’kidlaydi. Xoja hikoyatlari bugungi kun o‘quvchisi uchun ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Adib ilgari surgan axloqiy, ijtimoiy, ma’naviy g‘oyalar — ilmning qadri, odillik, halollik, saxovat, hushyorlik, poklik kabi fazilatlar har qanday davrda o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Shuningdek, u yomon xatti-harakatlar — o‘g‘irlik, ichkilikbozlik, zinokorlik, zulmning oqibati haqida oyat va hadislar asosida chuqur tahliliy fikrlar bildiradi. Xojaning hikoyatlari ixcham syujetga, sodda kompozitsiyaga ega. Har bir hikoya biror tarixiy shaxs yoki oddiy insonning ibratli amali orqali muallif g‘oyasini mustahkamlaydi. Shu bois bu hikoyatlar kitobxonni ezgulikka chorlaydi, ruhiy-ma’naviy ozuqa beradi, o‘zida belgilangan tarbiyaviy vazifani to‘la bajaradi.

### **Xulosa**

Umuman olganda, Xoja hikoyatlari o‘z mazmuni, badiiy yuksakligi, ma’naviy-estetik qimmatini bilan mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Ularda ilgari surilgan g‘oyalar bugungi zamon uchun ham ibrat va ruhiy-ma’naviy dasturulamal bo‘lib xizmat qila oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja. Miftoh ul-adl. Qo'lyozma. – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi.
2. Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja. Gulzor. Qo'lyozma. – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi.
3. Yo'ldoshev, Q. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2010.
4. Shoniyozov, K. Sharq adabiyotida hikoyat an'analari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
5. Quronov, D. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2019.